



SANOAT MAHSULOTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Achildiyeva Zilola Ergashovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

2-bosqich magistri

e-mail: Zilola_A_E@mail.ru

Annatsiya: *Maqolada sanoat samaradorligi va unga tasir qiluvchi omillar hamda bir qancha olimlarning qarashlari o'rganilgan sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirishni tashkil etuvchilari hamda "sanoat salohiyati" haqida tushunchalar keltirilgan*

Kalit so'zlar: *Sanoat samaradorligi, fond salohiyati, kadrlar salohiyati, mahsulot salohiyati, tashkiliy salohiyat, investitsiya.*

"Sanoat samaradorligi" iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab tushuncha bo'lganligi bois, uni tashkil etuvchilari ham ko'plab unsurlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun biz dastlab, ishlab chiqarish salohiyatini, so'ngra esa, undan foydalanish darajasini baholash masalalarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va institutsional sektorlari hamda sohalari kabi agrar tarmoq xo'jaligida ham o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Oxirgi yillarda milliy agrar sektorda amalga oshirilayotgan ishlar yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda izchil islohotlar natijasida sanoat tarmog'ining moddiy manfaatdorligi o'sib, ushbu tarmoqning mahsulot yetishtirish ko'rsatkichlari oshib bormoqda. Masalan, 2022 yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot tarkibida Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati 183 518,5 mlrd.so'mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 4,0 foizga oshdi[1].

Bugungi raqobat sharoitida jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy muammolar asosiy o'rinni egallayotgan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi "ajiotaj talab" hisobiga o'sishi, tabiiy ofatlar, suv toshqini, qurg'oqchilik kabi tabiatning turli injiqliklari natijasida ayrim mamlakatlar sanoatga katta zarar keltirayotgan, yaqin yillar ichida oziq-ovqat mahsulotlarini narxi 40-50 foizga oshishi prognoz qilinayotgan, umuman olganda, jahon miqyosida globallashuv sharoitida oziq-ovqat balansida bir qator nomutanosibliklar yuzaga kelayotgan bir sharoitda, mamlakatimizda izchil olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida sanoatning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvar PF-60-sonli farmoyishi bilan. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom

ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish⁷.

Mazkur vazifalar sanoat tarmog'iga ilg'or innovatsion texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarning yuqori samarali ishlanmalari, xususan, kichik sanoat zonalari tizimlarini amaliy faoliyatga keng qo'llash masalasiga alohida e'tibor berildi. Sanoat tarmog'idagi eng asosiy masalalardan biri – eksportbop mahsulotlar yaratishga e'tibor qaratish hamda ularni eksportini amalga oshirish dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlab o'tildi.

“Iqtisodiy salohiyat” - jamiyatni moddiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, ulardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlarning hali mavjudligini anglatadi hamda ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi⁸. A.O.Larionov tadqiqotlarida iqtisodiy salohiyat va uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha belgilanadi (1-rasm).



1-rasm. Hudud iqtisodiy salohiyati tuzilishida sanoat salohiyatining o'ri⁹

“Iqtisodiy salohiyat” tushunchasiga nisbatan juda yaqin bo'lgan tushunchalardan biri bu - “hududiy salohiyat” dir.

“Hududiy salohiyat” - hududning xomashyo manbai va barcha foydalanish mumkin bo'lgan resurslarini ishlab chiqara olish qobiliyati va imkoniyatlari darajasini ko'rsatib beradi.

SH.X.Nazarov tadqiqotlarida hududning sanoat salohiyatiga alohida e'tibor qaratiladi va uning asosiy maqsadi sifatida, sanoat mahsulotining mehnat unumdorligini oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, hududning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda hudud sanoatining assortiment bazasini

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”- www.lex.uz.

⁸ Qayumov A, Nazarova H., Egamberdiyev F., Yakubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. O'zMU . Toshkent- 2004. - 34 b.

⁹ Ларионов А.О. Оценка промышленного потенциала региона. Проблемы развития территории. Вып. 2(76). 2015. - 46 с.



diversifikatsiyalash masalalari esa, uning vazifalari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda sanoat salohiyatini oshirish omillari sifatida quyidagilar belgilanadi¹⁰:

- sanoat salohiyatini baholash va sanoat majmuasining qiyosiy ustunligini aniqlash, ishlab chiqarish quvvatlarining texnologik darajasini baholash;
- sanoat ishlab chiqarishining diversifikatsiyalanganlik darajasi, yuqori qo'shilgan qiymatda tarmoqning ulushi va qayta ishlovchi sanoat ishlab chiqarishning ulushi;
- ishlab chiqarishning innovatsion - imitatsion qobiliyatini baholash, xomashyo resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik hamda marketing holati va boshqalar.

O.V.Bakanach va K.V.Gauslarning fikricha - "sanoat salohiyati" sanoat korxonalarining raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va yaratishga bo'lgan yalpi qobiliyatlaridir. Mualliflarning qayd etishicha, sanoat salohiyati rivojlanishining eng muhim yo'nalishlari bu uning yangilanishi, texnologik modernizatsiya, tarmoqlarning jadal rivojlanishi, nisbatan ilg'or va texnologik munosabatlardir¹¹.

I.X.Sogoyev tushuntirishlariga ko'ra, "sanoat salohiyati" sanoat tashkilotlarining resurslardan foydalanish natijadorligining mumkin bo'lgan maksimal imkoniyatlarini ifodalovchi umumlashgan miqdoriy bahosidir. Muallifning qayd etishicha, sanoat salohiyati ahamiyatli darajada yalpi qo'shilgan qiymatni shakllantirish jarayonida ishtirok etuvchi barcha resurslardan maksimal darajada foydalanish imkoniyatidir¹².

A.P.Svinsova o'z tadqiqotlarida esa, sanoat salohiyatini quyidagicha tasniflashtiriladi¹³:

1. Fond salohiyati: a) texnik va texnologik salohiyat; b) ilmiy texnik salohiyat (innovatsion salohiyat va informatsion salohiyat); v) investitsion salohiyat (korxonalarining ichki xususiy mablag'lardan foydalanish salohiyati, investitsion jozibadorlik salohiyati).

2. Kadrlar salohiyati: a) ijtimoiy salohiyat; b) professional o'sish salohiyati;

3. Mahsulot salohiyati: a) sotilgan mahsulot salohiyati; b) mahsulot sifatining salohiyati; v) korxonani diversifikatsiyalash salohiyati - yangi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari.

Ishlab chiqarish salohiyati [productive potential] - bu iqtisodiy tizimning (mamlakat, hudud, kompaniya, korxonada) muayyan ishlab chiqarish omillari hajmida

¹⁰ Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов / Монография. Ш.Х. Назаров. Ташкент: IFMR, 2014. С. 184, 186-189, 201.

¹¹ Баканач О.В. Типология регионов РФ по уровню развития промышленного потенциала / О.В. Баканач, К.В. Гаус // Проблемы совершенствования организации производства и управления промышленными предприятиями: межвузовский сборник научных трудов. - 2012. - № 1. - С. 15-21.

¹² Цогоев И.Х. Роль государства в формировании и реализации промышленной политики в Северо-Кавказском федеральном округе: автореф. дис. на соиск. уч. ст. канд. экон. наук: 08.00.05 / И. Х. Цогоев. - М, 2012. - 29 с.


¹³ Свинцова А.П. Промышленный потенциал: понятие, критерии, структура. Экономический вестник УГНТУ / под ред. д.э.н. Родионовой Л.Н. // Сб. трудов УГНТУ, 2001. С. 103 - 106.

mumkin bo'lgan maksimal ishlab chiqarish hajmi va imkoniyatlar darajasi bo'lib, u tizimning texnologik taraqqiyot darajasini o'zida ifoda etadi¹⁴.

Ishlab chiqarish salohiyati qator o'ziga xos belgilar bilan farqlanib turadi va bularga quyidagilar kiradi¹⁵:

- maksadlilik;
- murakkablilik;
- o'zaroalokadorlik;
- o'zaroalmashuvchanlik;
- kobiliyatlilik;
- egiluvchanlik;
- sinflilik;
- kuvvatlilik.

Ishlab chiqarish salohiyatini yanada aniqroq tushunish uchun uni tashkil etuvchi unsurlar nimalardan iborat ekanligini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'lib, bu esa mazkur tushunchaning murakkabligini belgilab beradi va quyida ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy tuzilishi o'z ifodasini topadi (2-rasm).



2-рasm. Ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishi¹⁶

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "ishlab chiqarish salohiyati" va "sanoat salohiyati" tushunchalari bir-biriga juda yaqin bo'lgan tushunchalar bo'lib, sanoat salohiyatini tashkil etuvchilari quyidagilardan iborat¹⁷:

1. Fond salohiyati:

- a) texnik va texnologik salohiyat;
- b) ilmiy - texnik salohiyat:

¹⁴ Лопатников Л.И. Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. - 5-е изд., перераб и доп. - М.: Дело, 2003. - 291 с.

¹⁵ https://vuzlit.ru/1228772/proizvodstvennyy_potentsial_promyshlennosti_trudovye_resursy_osnovnye_fondy_proizvodstvennyye_ekonomnosti_privatizatsiya

¹⁶ Управление экономическим потенциалом организации: учебное пособие/ А.П.Романов, Г.Г.Серебрянников, В.М.Безутлая, О.В.Кириллина, М.К.Чарыкова. - Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2012. - 27 с.

¹⁷ Свинцова А.П. Промышленный потенциал: понятие, критерии, структура. Экономический вестник УГНТУ/ под. ред. д.э.н. Родионовой Л.Н. // Сб. трудов УГНТУ, 2001. - с. 103-106.

- innovatsion salohiyat;
- informatsion salohiyat;
- v) investitsion salohiyat:
- investitsion jozibadorlik salohiyati;
- sanoat korxonalarining xususiy ichki mablag'laridan foydalanish salohiyati.

2. Kadrlar salohiyati:

- a) ijtimoiy salohiyat;
- b) professional o'sish salohiyati.

3. Mahsulot salohiyati:

- a) sotilgan mahsulotlar salohiyati;
- b) mahsulot sifatining salohiyati;
- v) sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash salohiyati.

4. Tashkiliy salohiyat.

YE.S.Zambrijtskaya va A.V.Logachevalar ishlab chiqarish salohiyati tuzilishini ifodalashda unga korxonalar nuqtai nazaridan yondoshadilar va uni quyidagicha ifodalaydilar (3-rasm).



1.2.3-rasm. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishi¹⁸

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, mazkur tuzilishning asosini ishlab chiqarish omillari tashkil etadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ishlab chiqarish salohiyatining o'zagini ishlab chiqarish tushunchasi tashkil etadi. O'z navbatida salohiyat sanoat tarmog'i yoki sanoat korxonalarining ishlab chiqarish omillari bilan qay darajada ta'minlanganligini ham o'zida ifoda etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakat, hudud va tarmoq darajasida qaralganda bir - biridan farqlanadi. N.To'xliyevning fikriga ko'ra, "salohiyat tushunchasi (iqtisodiyotda) ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan barcha manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralarni anglatadi.

¹⁸ Замбрицкая Е.С., Логачева А.В. Система показателей для расчета производственного потенциала предприятий черной металлургии // Nauka-rastudent.ru. - 2017. - No. 02 (038) / [Электронный ресурс] - Режим доступа. - URL: <http://nauka-rastudent.ru/38/4054/>.



Makrodarajada yalpi iqtisodiy salohiyat deganda, ichki va tashqi bozorlar talabiga muvofiq milliy iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish maksimal mumkin darajadagi qobiliyati tushuniladi¹⁹.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'molning texnik darajasi, hajmi va tarkibi, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sifati, shuningdek, hududda va chet ellarda jamg'arilgan qiymatlar, mehnat va tabiat resurslari hududning yalpi iqtisodiy salohiyatini rivojlanish darajasini belgilaydi.

Hududning ishlab chiqarish salohiyati tabiiy va mehnat resurslari, asosiy kapital va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi va bu borada asosiy fondlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish salohiyatini ifodalaydigan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri asosiy fondlar qiymati hisoblanadi.

Asosiy fondlar - to'plangan binolar, inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari hamda ko'p yil foydalaniladigan boshqa ishlab chiqarish obyektlarining qiymatdagi ko'rsatkichidir. Asosiy fondlarning muayyan vaqtdagi real bahosini olish uchun ular bo'yicha inventarizatsion qayta baholash o'tkaziladi²⁰.

Asosiy fondlar milliy boylikning eng o'zgaruvchan tarkibiy qismi, ishlab chiqarish salohiyatining moddiy - texnikaviy asosi hisoblanadi. Asosiy fondlarga nomoddiy aktivlar (foydali qazilmalarni izlab topish xarajatlari, dasturiy ta'minot, texnologiyalar va boshqalar) ham kiradi.

Asosiy fondlarning faol va nafaol qismini bir-biridan farqlash lozim. Binolar, inshootlar, o'tkazgich qurilmalar, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi, shuning uchun ham ular asosiy fondlarning nafaol qismiga kiritiladi. Hozirgi paytda ular barcha asosiy vositalar qiymatining 60 foizga yaqinini tashkil etadi. Uning qolgan qismi mashinalar, asbob-uskuna va jihozlar, transport vositalari, xo'jalik inventarlaridan iborat faol qismidir.

Yalpi asosiy fondlar qiymatida iqtisodiy ishlab chiqarish salohiyatining poydevori sanoat bo'lib, bu yerda milliy iqtisodiyot barcha asosiy fondlarining 31,3 foizi to'plangan. Shuningdek, asosiy fondlarni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish turlariga bo'lish an'anaviy amaliyoti ham mavjud.

Demak, sanoatda ishlab chiqarish salohiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- mavjud (ishlab chiqarish hajmi) resurslar - asosiy va aylanma vositalar, ishchi kuchi, texnika, moliyaviy resurslar;
- har bir turdagi foydalanilgan resurslarning sifati va miqdori hamda ular o'rtasidagi mos nisbatlarning saqlanishi;
- ishlab chiqarishda foydalanilgan resurslar darajasi va ishlab chiqarish munosabatlarining tavsifi, ixtisoslashuvi, ishlab chiqarishning integrallashuvi va boshqalar.

¹⁹ To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 25 b.

²⁰ Qobilov Sh. R. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. - 119 b.



Doimo har bir mamlakat uchun ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Sanoat va sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish shartlari:

- mashinasozlik tarmog'ida kiritilayotgan texnologiyalarning to'la quvvatlar bilan ishlashini ta'minlash;

- tarmoqqa yuqori malakali kadrlarni jalb etish va ularning malakasini muntazam ravishda oshirib borish;

- asosiy kapitalga kiritilgan 1 so'mlik investitsiyaga to'g'ri keladigan mahsulot qaytimini oshirish maqsadida tarmoqda investitsiya qaytimi yuqori bo'lgan yuqori texnologiyalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga investitsiyalar kiritishda nisbiy ustunlik va imtiyozlar berish;

- tarmoqda chet el investitsiyalari hisobiga tashkil etilayotgan yangi obyektlarning qurilish davrini qisqartirish va bu sohada investitsiya loyihalari ishlab chiqishni cho'zib yubormaslik;

- doimo sanoat ishlab chiqarishning asosiy fondlarini yangilab turish va texnika-texnologiyalarning modernizatsiya darajasini oshirish va boshqalar.

Sanoat va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishning muhim omili bu - tarmoqni samarali investitsiyalash masalasidir.

Investitsiyalardan samarali foydalanish mehnat unumdorligi, moddiy-texnika hamda mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanishdan tashqari, investitsiya yo'nalishi, uning iqtisodiy tarmoqlararo taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish bilan ham bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda investitsiyalar kiritilishida ko'proq undan olinadigan daromadni hisobga olgan holda sarmoyalar kiritilmoqda. Bu esa ayrim hollarda oshiqcha mablag'larni foydasiz turib qolishi yoki investitsiya kiritilishida yuzaga keladigan tavakkalchilik hamda xatarlilik darajalarini aniqlamaslik oqibatida ishlab chiqarish jarayonini to'liq quvvat bilan ishlash imkoniyatining cheklanib qolishiga olib kelmoqda²¹.

Bunday muammoni bartaraf etish, albatta, investitsiyalash va ulardan foydalanish jarayonlarini chuqur o'rganish, unga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil etish, investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishi va to'g'ri yo'nalishini (ma'lum bir tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiya boshqa tarmoqlarga nisbatan ko'proq daromad olish mumkinligini asoslash) aniqlash hamda investitsiya siyosatini takomillashtirishni talab etadi.

²¹ Bayxonov B.T. O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini ekonometrik modellashirish uslubiyotini takomillashtirish. Monografiya. - T.: IQTISODIYOT, 2017. - 36 b.



Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda jalb etiladigan investitsiyalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma holatining o'rni beqiyosdir.

Infratuzilma moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning faoliyat yuritishlari uchun shart - sharoitlar yaratib beruvchi - "yordamchi iqtisodiy vosita" sifatida namoyon bo'ladi²².

"Infratuzilma - takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi umumiy sharoitlar tizimi, iqtisodiyot tarkibini shakllantiruvchi sohalar va aholi hayotiy ta'minoti samaradorligi uchun xizmat ko'rsatuvchi texnik - texnologik, tashkiliy - iqtisodiy, informatsion, ijtimoiy va boshqa o'zaro aloqador tizim majmuasidir"²³.

Infratuzilmani belgilovchi va xos alomat - muomala tizimidagi ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish sohalarining majmuasidir. Uning berilgan ta'rifidan infratuzilma tovarning aylanishi bilan bog'liq jarayonda amal qiluvchi sohalar majmuini o'z tarkibiga oladi degan ma'no kelib chiqadi.

Chunki ishlab chiqarilgan tovar pulga aylangandan keyingina, ishlab chiqarishni qayta takrorlanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Infratuzilmaning yana bir qirrasini: ishlab chiqarish uchun ijtimoiy sharoit muhayyo qilishni, ya'ni ishchi kuchini qayta tiklash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishi orqali ishlab chiqarishni bir maromda davom etishni ta'minlash mumkinligini ko'rsatgan.

Agar sanoat korxonasi infratuzilmasi to'g'risida fikr borganda u holda uning mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'lik bo'lmagan bo'linmalari nazarda tutiladi.

Ularning asosini esa ishlab chiqarish jarayonlariga texnik xizmat ko'rsatish, shuningdek, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib beruvchi, mehnat buyumlarini yetkazuvchi, ishlab chiqarishni xomashyo, yoqilgi, barcha energiya turlari bilan ta'minlovchi, asbob - uskunalarga va boshqa mehnat vositalariga xizmat ko'rsatuvchi hamda ta'minlovchi, moddiy boyliklarni saqlovchi, tayyor mahsulotni realizatsiyasini amalga oshiruvchi, uni yetkazib beruvchi hamda boshqa jarayonlar bilan shug'ullanuvchi xizmat ko'rsatish hamda yordam beruvchi sex xo'jaliklari (omborxonalar xo'jaligi va transport xo'jaligi) tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmog'ini rivojlanishiga davlatning qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llanishi, obyektiv va subyektiv omillarni inobatga olib, ularni oqilona baholanishi nafaqat qonuniylik, balki ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarib, tarmoqni barqaror rivojlanishiga amaliy jihatdan yordam ko'rsatadi.

²² Umirzoqov J.A., Yoqubjonov S.S., Obidov A.N. Ishlab chiqarish infratuzilmasi va uni rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati. International Scientific and Practical Conference "WORLD SCIENCE". № 5(9), Vol.2, May 2016.

²³ Говорин А.А. Инфраструктура современного предпринимательства: проблемы теории и практики. М.: ЗАО "Финстатпром", 1999, с.53.